

20-Mart, 2026-yil

**INKYUZIV TA’LIMNING MAQSAD, VAZIFALARI VA ASOSIY
TAMOYILLARI**

S.B.Sharipova

*O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti, pedagogika va psixologiya
kafedrasi dotsenti*

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 22 fevral kuni BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo‘nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Butun dunyoda qariyb 1 milliardga yaqin nogironligi bo‘lgan shaxslar borligi haqida o‘ylab, fikr yuritsak, bu nihoyatda ahamiyatli tashabbus ekaniga amin bo‘lamiz. Prezident nutqida ta’kidlanganidek: “2030-yilgacha mo‘ljallangan Barqaror rivojlanish maqsadlari mamlakatimizda har bir insonning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlashni ko‘zda tutadigan “hech kimni e‘tibordan chetda qoldirmaslik” tamoyili asosida amalga oshiriladi⁸”

Darhaqiqat, keyingi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizmining barcha bo‘g‘inlarida ulkan o‘zgarishlar, transformasiya jarayonlari kuzatilmoqda. 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab xalq ta’limi tizimida tajriba-sinov tariqasida ochilgan inklyuziv va korreksion sinflarni ham ushbu yangiliklar qatoriga kiritish mumkin. Inklyuziv ta’lim, garchand, milliy ta’lim tizimimizda yangi tushuncha hisoblanmasada, lekin uning huquqiy asoslari ilk bor O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida va boshqa qator qaror va farmonlarda o‘z aksini topdi. 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda inklyuziv ta’limga quyidagicha ta’rif berilgan: “Inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo‘lgan teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgandir⁹”.

Shuningdek 2020 yil 13 oktyabrda qabul qilingan PQ-4860-sonli «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident qarorida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’lim shartlarida ta’lim olayotgan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ulushini 2022 yilda 24 foizga, 2025 yil yakuniga kelib esa 40 foizga yetkazish vazifasi belgilab berilgan.

Demak inklyuziv ta’lim bugungi kunda xalq ta’limi tizimi oldida turgan va amaliyotga muvaffaqiyatli joriy etilishi kutilayotgan strategik maqsadlardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasida nogiron bolalar bilan bog‘liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966 yilda boshlangan. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 250000 ga yaqin turli ko‘rinishdagi nogiron bolalar (16 yoshgacha) ta’lim olish ehtiyojiga ega. Nogiron bolalar uchun ta’lim bilan birgalikda maxsus hizmatlar tashkil etish lozim. Mana shularni o‘z

⁸ <https://xs.uz/uz/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-bmt-inson-huquqlari-bojicha-kengashining-46-sessiyasidagi-nutqi>

⁹ <https://lex.uz/docs/-5013007>

20-Mart, 2026-yil

ichiga jamlagan ta’lim – inklyuziv ta’lim deb nomlanadi. Inklyuziv ta’limning maqsadi — alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat.

“**Inklyuziv ta’lim**” tushunchasi adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi: «Inklyuziv ta’lim – inglizcha (inclusive, inclusion) so‘zdan olingan bo‘lib uyg‘unlashmoq, uyg‘unlashtirilgan, o‘ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma’nolarini anglatadi¹⁰. Lotinchada esa (include) qamrab olaman, jalb qilaman ma’nosini, ya’ni nogironligi bo‘lgan va oddiy bolalar o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etishni nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim barcha mamlakatlarda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan masalalardan biridir.

Bizningcha inklyuziv ta’lim bu barcha o‘quvchilar (tarbiyalanuvchilar) uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlashdir.

Umuman olganda, jahon tajribasiga nazar tashlasak alohida yordamga muhtoj bolalarni ta’lim bilan qamrab olish darajalari quyidagicha ko‘rinishlarda amalga oshirilishi mumkinligini ko‘ramiz:

Eksklyuziya – ta’lim bilan qamrab olinmagan ya’ni ta’limdan tashqarida nogironligi bor bolalar. Bunday bolalar ta’limga jalb etilmaydi va o‘z-o‘zidan ularning ta’lim olish huquqlari ta’minlanmaydi.

Segregatsiya – alohida yordamga muhtoj bolalarni umumiy ta’limdan alohidalash va ularga maxsus maktab va internatlarda ta’lim berish.

Integratsiya – alohida yordamga muhtoj bolalar uchun umumta’lim maktablarida alohida sinflarni tashkil etish.

Inklyuziya – alohida yordamga muhtoj bolalar boshqa bolalar bilan umumta’lim maktablarida bir sinfda tahsil olishi.

Inklyuzivlik tamoyili ta’limda imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

Ota-onalar va mutaxassis pedagoglar inklyuziv ta’limni nafaqat isalgan ta’lim muassasasi uchun ochiq eshik sifatida balki ta’lim samaradorligi natijasi uchun mas’uliyat sifatida ham baholashlarini istar edik. Bunda ta’lim samaradorligi taqdim etilayotgan inklyuziv xizmat turlarining alohida yordamga muhtoj bolalar ehtiyojlariga mosligi bilan o‘lchanadi.

Inklyuziv ta’limning maqsadi — alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo‘llash orqali maxsus pedagoglarni jalb

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-5013007>

etgan holda to‘siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to‘laqonli uyg‘unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o‘rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat.

Maktablar alohida ta’lim olish ehtiyoji bo‘lgan bolalar va ularning ota-onalariga korreksion pedagogik yordam olishida va kasbga yo‘naltirishda har tomonlama yordam ko‘rsatadi.

Inklyuziv ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat:

rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo‘lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar muammolariga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantirish;

ta’lim jarayonida sog‘lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

barcha o‘quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko‘nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo‘llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860 sonli “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bilan 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini 2020-2021-yillarda amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi¹¹.

Ta’lim tizimini joriy etish har doim ma’lum bir qonun qoidalarga, tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- 1). Inklyuziv ta’limning e’tirof etilishi.
- 2). Inklyuziv ta’limning barcha uchun ochiq bo‘lishi tamoyili.
- 3). Bog‘lanishning mavjud bo‘lishi tamoyili.
- 4). Markazlashtirilmagan bo‘lishi tamoyili.
- 5). Inklyuziv ta’limda kompleks yondashishi tamoyili.
- 6). Inklyuziv ta’limda moslashuvchanlik tamoyili.
- 7). Malakaviylik tamoyili.

¹¹ <https://lex.uz/ru/docs/-5044711>

20-Mart, 2026-yil

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalari tizimida o’qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklaratsiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahonning ko’plab davlatlari e’tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko’plab muammolar mavjud. Ba’zi davlatlarda esa umumiy ta’lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda Imkoniyati cheklangan bola bolalarning ta’lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta’limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog’liq bo’lmaydi. Diskriminatsiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto’g’ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya’ni inklyuziv ta’limni e’tirof etgan holda, aholi o’rtasida targ’ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galdagi masaladir.

O’tgan yigirma yil davomida maxsus ehtiyojli bolalarni umumta’lim muassasalari tizimida o’qitish borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Ammo inklyuziv ta’limi tizimini joriy qilish asosan shaharlar miqiyosida bo’lib qishloqlardagi hududlarda hali-hamon maxsus ehtiyojli bolalar ta’limdan chetda qolib ketmoqda yoki qishloqlardagi ota-onalar Imkoniyati cheklangan bola farzandini shaharlardagi maxsus muassasalarga qatnashlarini ta’minlash uchun qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Shuning uchun ham maxsus ehtiyojli bolalarni inklyuziv ta’limga jalb etish barcha hududlarda barcha maxsus ehtiyojli bolalarni qamrab olgan bo’lishi ta’minlanishi lozim.

“Bog’lanish”-bu so’zning zaminida-ommaviy binolarning sifati, ayniqsa Imkoniyati cheklangan bola bolalar uchun maktablarga kirishning oson bo’lishi kabilar yotadi. Bola maktab binosiga (zinapoyalar aravachada yurishga moslashtirilmaganligi sababli) kira olmaganmi yoki maktab xojatxonasi aravachada harakatlanuvchilarga moslashtirilmaganligi uchun oddiy maktabdan chiqarib tashlamasligi kerak. Bu kabi qulayliklarni yaratish unchalik katta mablag’ talab qilmaydi. Yangi maktab binosi Imkoniyati cheklangan bola bolalarning ehtiyojlarini e’tiborga olgan holda rejalashtirilgan paytdan boshlab qurilishi kerak. Alatta Imkoniyati cheklangan bola bolalar uchun yaxshi bo’lgan qulayliklar normal rivojlanishdagi bolalar uchun hech bir muammo keltirib chiqarmaydi. Jismonan bog’lanishlarni yaratish inklyuziv ta’limning asosiy muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Bu tamoyilning mazmuni quyidagi ikkita aspekt yordamida ifodalanadi:

A). Inklyuziv ta’lim xizmatlari umumiy ta’lim tizimining integratsiya qilingan qismi bo’lishi kerak.

B). Inklyuziv ta’lim tizimidagi vazifalar mahalliy ta’lim organlariga jaqvobgarlik va boshqaruvni yuklash uchun markazlashmagan holda olib borilishi kerak va imkoniyatlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi lozim.

Optimal integratsiya erishish uchun markazlashtirilmagan bo’lish muhimdir. Bu ayniqsa qishloq sharoitlarida ayni muddao bo’ladi. Inklyuziv ta’limning vazifalari Imkoniyati cheklangan bola bolalarga o’z ota-onalari bilan birga bo’lish, ularga xuddi tengdoshlari kabi o’zlariga yaqin bo’lgan maktablarda ta’lim olish imkonini beradi. Bu ularning shaxsiy sifatilarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Imkoniyati

cheklangan bola bolaning normal rivojlanishiga halaqil berish, Imkoniyati cheklangan bolalikdan ham og‘irroq holatlarga olib kelishi mumkin.

Imkoniyati cheklangan bola bolalrga ularga Imkoniyati cheklangan bola deb faqatgina nuqson jihatdan yondashishi emas, balki bu bolalrga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa maxsus ehtiyojli bolalar uchun ta‘lim masalasini rejalashtirayotgan uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtiyojini hisobga olgan holda tuzishni talab etadi. Bundan tashqari inklyuziv ta‘limda Imkoniyati cheklangan bola boladagi mavjud nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash, kompensatsiya qilish bilan bir qatorda bilim ko‘nikmalarga ega qilish, kasb hunarga o‘rgatish ishlarini parallel ravishda olib borish talab etiladi. Bu tamoyilning mohiyatida maxsus ehtiyojli bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta‘limi boshlang‘ich va o‘rta-maxsus ta‘limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bola bolalarning kasb-hunar ta‘limi va oliy ta‘limi ham amalga oshirilishi ta‘lab etadi. Chunki inklyuziv ta‘lim tizimining vazifalaridan biri maxsus ehtiyojli bolalrni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta‘minlashdan iboratdir.

Bu tamoyilning mazmuni shundaki, o‘quv reja, dastur va darsliklar maxsus ehtiyojli bolalarning imkoniyatlariga moslashuvchan bo‘lishi kerak. Bolaning maxsus ta‘limga bo‘lgan ehtiyojlari har qanday integratsiya faoliyatining asosini tashkil etishi kerak. Shaxs ehtiyojlarining darajalari va turlari har xil bo‘lganligi tufayli bunday faoliyatlar moslashuvchan o‘zgaruvchan bo‘lishi talab etiladi.

Inklyuziv ta‘lim joriy qilingan maktablarda (muassasalarda) ta‘lim jarayonini tashkil etish tamoyillari.

- Maxsus ta‘lim tamoyillari:
- Korreksion yo‘naltirilganligi;
- Nuqsonini aniqlash, ta‘lim berishda kompleks (klinik-genetik, neyrofiziologik, psixolog\pedagogik) yondoshish;
- Nuqsonli funksiyani erta aniqlab, tibbiy\psixologik jixatdan korreksiyalash;
- Umumiy o‘rta ma‘lumot berish, kasbga yo‘naltirish va ijtimoiy hayotga tayyorlashga moslashtirish;
- Differensial tabaqalashtirish va aloxida yondoshish;
- Ta‘limning uzluksizligini ta‘minlash.

Maxsus ehtiyojli bolalar inklyuziv tarzda o‘qitilayotgan sinflarda yuhori malakali o‘qituvchilarning dars berishi talab etiladi. Bundan tashqari inklyuziv sinf o‘qituvchisi defektlogiya sohasi bo‘yicha ham malaka oshirgan bo‘lishi kerak.

Maktabning inklyuziv ta‘lim sinflari va boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarning birinchi sinfiga o‘quvchilar ular yetti yoshga to‘ladigan yilda qabul qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi.
Inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.

20-Mart, 2026-yil

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash va inklyuziv ta‘limni rivojlantirishga oid qarorlar. – 2019–2023.

3. Xolmatova D., Rasulova M. *Maxsus pedagogika asoslari.* – Toshkent, 2019.

